




**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING  
YANGI O‘ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA’SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ  
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT  
OF NEW UZBEKISTAN**

---

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023  
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrası "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



### **MAS'UL MUHARRIR**

**Zahidov G'ofurjon Erkinovich** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### **TAHRIRIYAT HAY'ATI**

**G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

**Ahmedov Durbek Quدراتillayevich** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Mahmudov Nosir Mahmudovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Butaboyev Muhammadjon** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Islamov Anvar Ashirkulovich** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mulaydinov Farxod Murotovich** – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası mudiri

**Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li**



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

55	ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОПОВЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ - Ходжакулов Мухторжон Назаркулович,	241-246
56	ФОРМАЛИЗАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ СНИЖЕНИЯ РАЗМЕРНОСТИ ПРИЗНАКОВОГО ПРОСТРАНСТВА В ЗАДАЧАХ КЛАССИФИКАЦИИ - Х.Ш. Рашидов	247-254
57	YER OSTI KON ISHLARIDA FOYDALANILADIGAN TEXNIK ISHLANMALARNING INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH - U.M. Mamirov, U.T. Toshtemirov	255-256
58	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA SMART SHAHTALARNI TASHKIL QILISH - O.SH. Yormatov, U.T. Toshtemirov	257-258
<b>5-SHO'BA. QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI YER UNUMDORLIGI, HOSILDORLIK VA NASLLI CHORVA MOLLARINI YETISHTIRISH</b>		
59	ПАХТА-ТО'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI - Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li	260-262
60	BUGUNGI KUNDAGI OROL DENGIZI FOJIASI VA UNING OQIBATLARI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Esonaliyeva Madinabonu Shuxratjon qizi	263-264
61	SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLARDA BIOMIKROELEMENTLAR MIQDORI VA RAQAMLI XARITALASH - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abduvaxobova Ximoyatxon Ilxomjon qizi, Ma'rufjonov Javohir G'ayratjon o'g'li, Solijonova Dilafro'zxon Shuxratjon qizi	265-267
62	SHOHIMARDONSOY KONUS YOYILMA TUPROQLARIDA BIOMIKROELEMENTLAR BIOGEOKIMYOSI - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abdulazizov Asilbek Abdulhad o'g'li, Toxirova Madinaxon Rasuljon qizi	268-270
63	ZAMONAVIY DEHQONCHILIKDA TOMCHILATIB SUG'ORISH - Yusupova Mohidil Abdumutalibovna, Abdullaaxatov Asadbek Ilhomjon o'g'li	271-274
64	QUMLI TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA XOSSALARINING O'ZGARISHLARI - Yusupova Mohidil Abdumutalibovna, Ibroximov Shahroz Alisher o'g'li	275-277
65	MEVA VA SABZAVOTLI PASTILLALARNI QURITISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI - Xolikov M.M., Rahbar: Nasirova Sh.N.	278-280
66	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI RIVOJLANISH OMILLARI - Xoliqov M.M.	281-282
67	ГЕОИНФОРМАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ПОДЗЕМНЫХ ВОД - Мадримов А.Ш.	283-291
68	SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI - M.A.Mirzayeva, M.I.Teshaboyeva	292-295
69	СУФОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАР ШАРОИТИДА БАҲОРГИ МУДДАТДА ЭКИЛГАН СОЯНИНГ 1000 ДОНА ДОН МАССАСИГА ТАСИРИ - Холиқов Аброр Тожимуродович, Қурбонқулова Умида Хусанқизи	296-298
70	QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIYASI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI - Kenjayev Toshbolta Aminovich	299-303
<b>6-SHO'BA. ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI</b>		
71	ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TURIZM SOHASIDAGI MUAMMOLARGA YECHIMLAR - Ro'ziyev Shohrusbek Ravshanjon o'g'li	305-308

**PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI****Urishev Baxtiyor Abdusamatovich**

Assistent, Andijon mashinasozlik instituti

**Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li**

Andijon mashinasozlik instituti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekistonda yetishtirilgan paxta xomashyosining qo'shilgan qiymatini oshirish maqsadida paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish zarurligini asoslab berdi. To'qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishni rivojlantirishda klasterlarni qo'llashning xorijiy va mahalliy tajribasi ko'rib chiqildi, shuningdek klasterlarni yaratishga ta'sir etuvchi mavjud muammolar va omillar o'rganildi; O'zbekistonning yengil sanoatida paxta-to'qimachilik klasterlarini shakllantirishning mumkin bo'lgan modeli taklif etiladi. Tadqiqot ob'ekti O'zbekiston Respublikasida paxta-to'qimachilik klasterlarini yaratish bo'yicha davlatning iqtisodiy siyosatini olib borish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar edi. Tadqiqot mavzusi-Klaster ishlab chiqarishni shakllantirishning xorijiy va mahalliy tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash amaliyoti istiqbollari. Tadqiqot usullari ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni bilishning qiyosiy, dialektik usulini, mantiqiy usulini ifodalaydi.

**Kalit so'zlar:** klasterlash, hududiy-sanoat kompleksi, paxta xomashyosi, paxta tolasi, to'qimachilik ishlab chiqarish, tikuvchilik ishlab chiqarish, vertikal integratsiya, paxtani qayta ishlash.

**Annotation.** This article justified the need to establish cotton-textile clusters in order to increase the added value of cotton raw materials grown in Uzbekistan. The foreign and domestic experience of applying clusters in the development of textile and sewing production was considered, as well as the existing problems and factors affecting the creation of clusters were studied; a possible model of the formation of cotton-textile clusters is proposed in the Light Industry of Uzbekistan. The object of the study was the social relations associated with the conduct of the economic policy of the state on the creation of cotton-textile clusters in the Republic of Uzbekistan. The subject of the study is the foreign and domestic experience in the formation of cluster production and the prospects for the practice of its application in Uzbekistan. Research methods represent a comparative, dialectical way of knowing socio-economic phenomena, a logical way.

**Keywords:** clustering, territorial-industrial complex, cotton raw materials, cotton fiber, textile production, Sewing Production, vertical integration, cotton processing.

Hozirgi vaqtda bitta paxta-to'qimachilik korxonasi uchun bozorda o'z mavqeini saqlab qolish qiyin, shuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ko'pincha sa'y-harakatlarni birlashtirish va birgalikda ishlashdan sinergik samara olish imkonini beruvchi klaster tuzilmalariga birlashmoqdalar.

2022 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 163 ta agroklasterni faoliyat ko'rsatmoqda.

Demak paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish zarurati tug'ilmoqda. Ishlab chiqarish klasterini o'zi nima?

Umumiy ma'noda, ishlab chiqarish klasteri iqtisodiyotning bir xil yoki bir-biriga bog'liq sohalarida faoliyat yuritadigan va geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan korxonalar guruhidir. Bu korxonalar texnologik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lishi juda muhimdir. Bundan tashqari, ushbu korxonalar bitta umumiy maqsad uchun - raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun birlashgan. Masalan, paxta-to'qimachilik klasterining texnologik zanjiri paxta xom ashyosini ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, paxta tolasidan kalava ip ishlab chiqarish, gazlama ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga, fermerlarni (paxta xom ashyosini yetishtiruvchilarni), paxta tozalash zavodini, paxtani qayta ishlash korxonasini, to'qimachilik fabrikasini va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonani birlashtirishning maqsadli har bir ishlab chiqaruvchining xarajatlarini kamaytiradigan va yakuniy mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradigan yagona tuzilma yaratishdir.

Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari. Zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, ushbu klaster ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, maxsus transport vositalari va texnika, hayvonlar va o'simliklar, veterinariya preparatlari, xom ashyo va materiallar, qurilish mollari va issiqxona komplekslari 2022 yilning 1 yanvariga qadar muddatda bojxona to'lovlaridan ozod qilindi. Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari paxta sanoatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan bir qancha imtiyozlarga ega, jumladan:

-fermer xo'jaliklariga paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishining tegishli tashkilotchilari tomonidan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilgan miqdorlarda va shartlar asosida avans berish;

-paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari paxta xom ashyosini yetishtirish va ularga yetkazib berishni moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar ajratish.

#### **Klasterlarni tashkil etish tamoyillari va turlari.**

Xorijiy mamlakatlarda klasterlarni shakllantirish bo'yicha to'plangan tajribalar va amaliyotlardan ma'lumki, klasterlar asosan quyidagi yo'nalishlarda shakllantiriladi:

- birinchi yo'nalish Italiya modeli (sanoat okruglari) hisoblanib, kichik korxonalar mahsulotni kengaytirish borasidagi kuchli konsentratsiyasiga asoslangan, bozorga chiqish va uni

egallashda o'zaro rasmiy yoki norasmiy hamjamiyat asosida faoliyat yurituvchi ichki klasterlash shaklida[1];

- ikkinchi yo'nalish sanoat klasterlari hisoblanib, ular konsentrik doiralar hosil qiluvchi (markazlashgan tashkilotlar) markaziy boshqaruv tizimiga ega klaster shakli hisoblanadi. Bunday sanoat klasterlari tarkibida ilmiy laboratoriyalar, ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlari faoliyat yuritadi. Klasterlarni bunday shakllantirish Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiya tajribalarida aks etgan. Ularda xalqaro bozorlar uchun o'ta kuchli hamkorlik va yuqori darajada shakllantirilgan rasmiy ichki aloqalar mavjud. Bunday klasterlarning asosiy xususiyatlari innovatsion faoliyatning sochilib ketishi va chiziqli bog'lanishning, mavjud emasligi kabilar bilan izohlanadi. Har bir klaster ishtirokchisining tizimning boshqaruv apparatiga zanjirli aloqasi ta'minlanadi va bu o'zaro integratsiyani ta'minlashga asosiy kalit hisoblanadi. Bunday klasterlarni tashkil etish jarayonida ko'proq moliyaviy manbalarga tayanishi esa unga davlatning aralashuvini shart qilib qo'yishi bilan birga, asosiy moliyaviy ta'minotchisi sifatida qatnashishini rag'batlantiradi. Klasterlarni shakllantirishning bunday usuli davlatning ko'magidagi va moliyaviy mablag'ning kattaligi uni tashkil etishning kuchsiz tomoni bo'lsada, xalqaro bozorda mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy vositasi yoki strategiyasi sifatida qaraladi;

-uchinchi yo'nalish sanoatlashtirish davriga xos hisoblanib, bunday klasterlash strategiyalaridan Skandinaviya, Shvetsariya va AQSHda keng qillanilgan. Ko'proq uchlik spiral hosil qiluvchi klasterlash modelining asosiy yo'nalishi innovatsiyalarni yaratishga urg'u beradi va yaratilgan innovatsiyalarni klaster ishtirokchilariga sochib yuborish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi.

## **Xulosa**

Biz bu tayyorlagan maqolamizda Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish zarurati haqida o'rgandik. Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari to'g'risida o'rgandik. Klasterlarni tashkil etish tamoyillari va turlari haqida ma'lumotga ega bo'ldik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Турсунхужаев П.М. Корхоналарда ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва режалаштириш. Тошкент, 1997 й.
2. Маслов Е.В. Управление персоналом предприятия. М.: -1998 г.
3. Производственный менеджмент. Ильенкова С.Д. таҳрири остида, М. 2001 й.
4. Пахтани дастлабки қайта ишлов бериш. Зикриев Э. умумий таҳрири остида, Ўқув қўлланма. Т.; Меҳнат -2002.
5. Шепеленко Г.И. Экономика, организация и планирование производства на предприятии. Ростов-на-Дону. 2001 г.
6. Косимов Ф.М. Ташкилот ва ташкилий бошқариш назарияси. -Т., 2004й.